

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O'quv-uslubiy boshqarma  
tomonidan ro'yxatga olindi

№ 2014/0204  
2014 yil 20 iyun

Institut Kengashining  
№1 sonli qarori bilan  
TASDIQLANGAN  
2014 yil 23 avgust



## PUL, KREDIT VA BANKLAR

### ISHCHI O'QUV DASTURI

#### Oliy ta'limning

<b>Bilim sohasi:</b>	200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq;
<b>Ta'lim sohasi:</b>	230000- «Iqtisod».
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	5231500 - «Baholash ishi» 5231300 - «Pentsiya ishi»; 5231200 - «Sug'urta»; 5230800 - «Soliqlar va soliqqa tortish»; 5230900 - «Buxgalteriya hisobi va audit»; 5230200 - «Menejment» 5230300 – «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish»

Toshkent-2014


Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:** Qoraliyev T.M. - TMI, Bank hisobi va audit kafedrasini professori, i.f.n.  
G'aniyeva U.A. - TMI, Bank hisobi va audit kafedrasini katta o'qituvchisi.  
Rayemova N.M. - TMI, Bank hisobi va audit kafedrasini o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:** Karimov N.G'. - TDIU, "Bank ishi va korporativ moliya" kafedrasini mudiri, prof., i.f.d. (turdosh OTMdan)  
Marpatov M.D. - O'zR Markaziy banki "Buxgalteriya hisobi, hisoboti va davlat byudjeti kassa ijrosi" departamenti direktori o'rinbosari (kadrlar buyurtmachisi)

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014 yil 12 iyundagi 18-sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.


**Kafedra mudiri**

 N.N. Oblomurov

Fanning ishchi o'quv dasturi Kredit iqtisod fakulteti Kengashida muhokamadan o'tkazilgan va tavsiya etilgan (2014 yil 6 iyundagi 10-sonli qarori).

**Fakultet dekani**



 dots. O. Sattarov

**Kelishildi:**  
O'quv ishlari bo'yicha  
prorektor



 prof. A. Karimov

## KIRISH

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra ta'lim sohalarida o'qitiladigan "Pul, kredit va banklar" fani dasturi iqtisodiyotda zarur bo'ladigan: pul va kredit munosabatlarini tashkil etilishi, uni barqarorlashtirish yo'llari; bank tizimini shakllanishi va ular faoliyatini barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar Markaziy bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari, nobank moliya kredit tashkilotlari va ularning turlari; kredit tizimi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, Qonun va Farmonlarning mohiyati kabi boshlang'ich tushunchalarini o'z ichiga olgan bo'limlaridan tashkil topgan.

### 1.1. Fanning maqsad va vazifalari

"Pul, kredit va banklar" fanining asosiy maqsadi – talabalarda pulning zarurligi, mohiyati, funksiyalari, pul tizimi va bank tizimi, moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi hamda hisobotini rasmiylashtirish, auditning professional xizmatlarini ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha nazariy- amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga O'zbekiston Respublikasida pul muomalasini tashkil qilishning huquqiy asoslari, pul muomalasini barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari; inflyatsiyani kamaytirish yo'llari; pul tizimi va bank tizimini tashkil qilish asoslari; kredit munosabatlari, uning ob'ekti va sub'ektlari; kreditni iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati; kreditning turlari va shakllari; kreditlash jarayonini tashkil etilishi; Markaziy bankning funksiyalari va operatsiyalari; tijorat banklari faoliyatini tashkil etilishi, boshqaruv tizimi; tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari hamda ularning mutanosibligini boshqarish; kredit tizimi barqarorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar; banklarning likvidliligi va to'lovga layoqatliligi; bank tizimini nazoratini o'rganish hamda baholash; xalqaro valyuta munosabatlarining mohiyati va turlari, valyuta tizimi va uning elementlari; xalqaro moliya institutlari va ularning O'zbekiston bilan aloqalari haqida nazariy- amaliy bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni beradi.

*Har bir mavzu yakunida ta'lim texnologiyalari keltirilgan va ularni qo'llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmua(O'UM)da bayon etilgan.*

### 1.2. Fanni o'zlashtirgan talabaning malakaviy darajasi:

- pul va kredit munosabatlarini tashkil etilishi, uni barqarorlashtirish yo'llari haqidagi;
- pul, kredit, banklar faoliyati, Markaziy bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari, nobank moliya kredit tashkilotlari va ularning turlarini;
- kredit tizimi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, Qonun va Farmonlarning mohiyatini;
- bank tizimini shakllanishi va ular faoliyatini barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar haqidagi tasavvur va malakaga ega bo'ladi.

### **1.3. Fanning o`quv rejasidagi fanlar bilan bog`liqligi**

Mazkur fanni o`rganish uchun bakalavr-iqtisodchi davlat ta`lim standartlarida ko`zda tutilgan iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada bo`ladi.

### **1.4. Fanni o`qitishda qo`llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati**

«Pul, kredit va banklar» fanining *ma`ruza mashg`ulotlarida* ma`lumotlarni ko`rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

*insert jadvali:*

- mustaqil o`qish, ma`ruza tinglash jarayonida olinadigan ma`lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.

- oldindan olingan ma`lumotni yangisi bilan o`zaro bog`lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

*Klaster (Klaster - tutam, bog`lash):*

Ma`lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g`oyalarni yig`ish.

*Toifali jadval:*

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

- ajratilgan belgilarga ko`ra olingan ma`lumotlarni birlashtirishni ta`minlaydi;  
- tizimli mushohada qilish, ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko`nikmasini rivojlantiradi.

*Kontseptual jadval:*

O`rganilayotgan hodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo`yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko`nikmasini rivojlantiradi.

*BBB jadvali:*

Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim

- matn (mavzu, bo`lim) bo`yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;  
- tizimli mulohaza kilish, tarkibga ajratish ko`nikmalarini beradi.

*T-jadval:*

Bitta kontseptsiya (ma`lumot)ning jihati o`zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). Tanqidiy mushohada rivojlantiradi.

*BLOT-tahlil jadvali:*

Tashkilot resurslari holatini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni muassasa bo`yicha umumiy tarzda yoki alohida muammo yoki loyixa bo`yicha

ham amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada qilish, taqqoslash, solishtirish, tahlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

*Loyihalash metodi:*

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

«Pul, kredit va banklar» fanining **amaliyot mashg'ulotlarida** muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari:

*Aqliy hujum:*

Bu uslubda qo'yilgan savol, maummo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama kilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlar faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

*Bahs:*

O'z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama kilish, xaqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

*Muzokaralar:*

Eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

*Pinbord texnikasi:*

Muammoni xal etish buyicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

*Delfi texnikasi:*

Muammoni xal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

*6-6 texnikasi:*

Qo'yilgan muammoni xal etish buyicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi xarakteristikalar algoritmgacha muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

*Keys stadi.:*

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish metodi.

Shuningdek "Pul, kredit va banklar" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, (Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Web Trust, SYS Trust), slaydlardan, multimedia ta'lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

**1.1. 5231500 “Baholash ishi” yo’nalishida, 5231300 “Pensiya ishi”, 5231200 “Sug’urta”, 5230900 “Buxgalteriya hisobi va audit” yo’nalishlarida “Pul, kredit va banklar” fanidan o’tiladigan mavzular va ular bo’yicha mashg’ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti**

t/r	Fan mavzularining nomi	Jami soatlar	shu jumladan		
			Ma’ruza	Amaliy mashg’ulot	Mustaqil ta’lim
<b>Kuzgi semestr</b>					
1.	Pulning zarurligi, mohiyati, funktsiyalari va roli	8	2	2	4
2,3	Pul aylanishi va uning tuzilishi	12	4	4	4
4.	Pul muomalasini tashkil kilish va pul massasi	8	2	2	4
5.	Pul tizimi va uning elementlari	8	2	2	4
6.	Pul nazariyalari	8	2	2	4
7.	Inflyatsiya	8	2	2	4
8.	Kreditning zarurligi. mohiyati va funktsiyalari	8	2	2	4
9.	Kreditning shakllari va turlari	8	2	2	4
10.	Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi	8	2	2	4
11.	Tijorat banklari va ularning funktsiyalari	8	2	2	4
12.	Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari	10	2	2	6
13.	Tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta’minlash	8	2	2	4
14.	Markaziy banklar va ularning funktsiyalari	10	2	2	6
15.	Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari	10	2	2	6
16.	Xalkaro valyuta munosabatlari va ularni tartibga solish masalalari	10	2	2	6
17.	Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari	12	4	4	4
	1-oraliq nazorat				
	2-oraliq nazorat				
	Yakuniy nazorat				
	<b>Jami</b>	<b>144</b>	<b>36</b>	<b>36</b>	<b>72</b>

**5230800 “Soliq va soliqqa tortish” yo’nalishida “Pul, kredit va banklar” fanidan o’tiladigan mavzular va ular bo’yicha mashg’ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti**

t/r	Fan mavzularining nomi	Jami soatlar	shu jumladan		
			Ma’ruza	Amaliy mashg’ulot	Mustaqil ta’lim
<b>Bahorgi semestr</b>					
1.	Pulning zarurligi , mohiyati, funktsiyalari va roli	8	2	2	4
2.3	Pul aylanishi va uning tuzilishi	12	4	4	4
4.	Pul muomalasini tashkil kilish va pul massasi	8	2	2	4
5.	Pul tizimi va uning elementlari	8	2	2	4
6.	Pul nazariyalari	8	2	2	4
7.	Inflyatsiya	8	2	2	4
8.	Kreditning zarurligi. moyiyagi va funktsiyalari	8	2	2	4
9.	Kreditning shakllari va turlari	8	2	2	4
10.	Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi	8	2	2	4
11.	Tijorat banklari va ularning funktsiyalari	8	2	2	4
12.	Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari	8	2	2	4
13.	Tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta’minlash	8	2	2	4
14.	Markaziy banklar va ularning funktsiyalari	8	2	2	4
15.	Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari	10	2	2	6
16.	Xalkaro valyuta munosabatlari va ularni tartibga solish masalalari	14	4	4	6
17.	Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari	12	4	4	4
	1-oraliq nazorat				
	2-oraliq nazorat				
	Yakuniy nazorat				
	<b>Jami</b>	<b>144</b>	<b>38</b>	<b>38</b>	<b>68</b>

**5230300 “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish”, 5230200 “Menejment”  
yo’nalishlarida “Pul, kredit va banklar” fanidan o’tiladigan mavzular va ular bo’yicha  
mashg’ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti**

t/r	Fan mavzularining nomi	Jami soatlar	shu jumladan		
			Ma’ruza	Amaliy mashg’ulot	Mustaqil ta’lim
<b>Bahorgi semestr</b>					
1.	Pulning zarurligi , mohiyati, funktsiyalari va roli	8	2	2	4
2.3	Pul aylanishi va uning tuzilishi	12	4	4	4
4.	Pul muomalasini tashkil kilish va pul massasi	8	2	2	4
5.	Pul tizimi va uning elementlari	8	2	2	4
6.	Pul nazariyalari	8	2	2	4
7.	Inflyatsiya	8	2	2	4
8.	Kreditning zarurligi. moxiyagi va funktsiyalari	8	2	2	4
9.	Kreditning shakllari va turlari	8	2	2	4
10.	Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi	8	2	2	4
11.	Tijorat banklari va ularning funktsiyalari	7	2	2	3
12.	Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari	8	2	2	4
13.	Tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta’minlash	8	2	2	4
14.	Markaziy banklar va ularning funktsiyalari	8	2	2	4
15.	Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari	8	2	2	4
16.	Xalkaro valyuta munosabatlari va ularni tartibga solish masalalari	11	4	4	3
17.	Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari	11	4	4	3
	1-oraliq nazorat				
	2-oraliq nazorat				
	Yakuniy nazorat				
	<b>Jami</b>	<b>137</b>	<b>38</b>	<b>38</b>	<b>61</b>



## **2. O'QUV MATERIALLARI MAZMUNI**

### **2.1. MA'RUZA MASHG'ULOTLARI**

#### **2.1.1. Pulning zarurligi, mohiyati, funktsiyalari va roli (2 soat)**

Tovar ishlab chiqarish va pulning zarurligi. Pulning mohiyati va uning xususiyatlari. Pul tovar qiymatining umumiy ekvivalenti. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari. Pulning funktsiyalari va ularga tavsif: pul qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arma vositasi sifatida. Pul funktsiyalarining o'zaro bog'liqligi. Pulning turlari. Pulning iqtisodiyotdagi roli. Iqtisodiyotni rivojlantirishda pul barqarorligini ta'minlashning o'rni.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Pog'ona, qadamba-qadam metodi, Venn diagrammasi, T-sxemasi, o'z-o'zini nazorat.*

[A1, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.1.2,2.1.3. Pul aylanishi va uning tarkibi (4 soat)**

Pul aylanishi haqida tushuncha va uning tuzilishi. Pul aylanishining tarkibiy qismlari. Naqd pulsiz hisob-kitoblar, uni tashkil qilish tamoyillari va rivojlantirish istiqbollari. Naqd pul aylanishi va uning xususiyatlari. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning asosiy shakllariga qisqacha tavsifnoma, ularning xususiyatlari va qo'llash imkoniyatlari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Blits-so'rov, zig-zag usuli, munozara, BBB, Insert, o'z-o'zini nazorat.*

[A1, A2, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.1.4. Pul muomalasini tashkil qilish va pul massasi (2 soat)**

Pul yaratish mexanizmi. Pul muomalasi qonuni. Muomaladagi pul massasi va uni boshqarish. Pul agregatlari, ularga tavsifnoma va pulni tartibga solish amaliyoti. O'zbekistonda pul agregatlari va ularning xususiyatlari. Pul kredit siyosati va uning asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pul muomalasini tartibga solish va barqarorlashtirishda Markaziy bankning roli.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Integrativ, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.1.5. Pul tizimi tushunchasi, turlari va elementlari (2 soat)**

Pul tizimi va uning asosiy elementlari. Pul tizimining turlari va ularning evolyutsiyasi. O'zbekiston Respublikasida pul tizimi rivojlanishining tarixi. O'zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi(1991-1993 yillardagi pul muomalasi. So'mning muomalaga kiritilishi, 1994 yildagi pul

islohoti). O'zbekiston Respublikasi pul tizimining amaldagi holati va asosiy maqsadi. Pul tizimining barqarorligi. Turli mamlakatlarning pul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy valyutaning konvertabelligini ta'minlash yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. B/B/B jadvali, munozara, Venn diagrammasi, T-sxema, o'z-o'zini nazorat*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.1.6. Pul nazariyalari (2 soat)**

Pul nazariyalari to'g'risida umumiy tushuncha. Pul nazariyalarining kelib chiqishi, turlari va namoyondalari. Pulning metallik nazariyasi. Pulning nominallik nazariyasi va uning manbalari. Pulning miqdoriy nazariyasi. Pulga Keynesian, nokeynsian va boshqa qarashlar. Pul nazariyasining yangicha talqin qilinishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ajurali arra, bumerang, 3×3 usuli, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.1.7. Inflyatsiya va uning turlari. Pulning barqarorligini ta'minlash yo'llari (2 soat)**

Inflyatsiya, uning mazmuni, kelib chiqish sabablari va shakllari. Inflyatsiyaning sotsial-iqtisodiy oqibatlari. Pul muomalasini barqarorlashtirish va inflyatsiyani bartaraf qilish yo'llari. Pul islohotlari va uni pul muomalasini barqarorlashtirishdagi o'rni. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Markaziy bank pul-kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Blits, 4×4 usuli, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.1.8. Kreditning zarurligi, mohiyati va funktsiyalari (2 soat)**

Kredit tushunchasi va uni iqtisodiy kategoriya sifatida vujudga kelishi. Fondlar (kapital)ning aylanishining o'ziga xos xususiyatlari va kreditning zarurligi. Kreditning mohiyati va uning funktsiyalari. Kredit qonuniyatlari va chegaralari. Kreditning tamoyillari va ularning mohiyati. Kreditning bozor iqtisodiyotidagi roli. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kreditning roli va ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, "Bumerang", "Klaster", "Blits-so'rov", "Fikrlash xaritasi" "Ajurali arra", "Veer", Charxpalak, B.B.B jadvali, kichik guruhlarda ishlash metodlari.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.1.9. Kredit turlari va shakllari (2 soat)**

Kreditning asosiy shakllari va ularning tavsifi. Kreditning turlari va ularning kreditlash jarayonidagi o'рни. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kreditning roli va ahamiyati. Ssuda kapitali, ssuda foizining mazmuni va uning funktsiyalari. Ssuda foiziga ta'sir qiluvchi omillar. Ssuda foizi normasi va uning o'zgarishi. Bozor munosabatlari sharoitida ssuda foizining roli. Kreditning tamoyillari va ularning moxiyati. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kreditlar bo'yicha foizlar o'sishining asosiy sabablari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ma'ruza, namoyish etish, blits-so'rov, "baliq skeleti", guruhlarda ishlash metodi.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.1.10. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi (2 soat)**

Banklarning kelib chiqish tarixi va uning mohiyati. Banklarning funktsiyalari. Bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Banklarning turlari va ular faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, uning pog'onalari, maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari. Xorijiy davlatlar bank tizimi va uni o'ziga xos xususiyatlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining bank tizimiga ta'siri.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ma'ruza, namoyish etish, "Veer" metodi, kichik guruhlarda ishlash, "Blits-so'rov" metodlari.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.1.11. Tijorat banklari va ularning funktsiyalari (2 soat)**

Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va xuquqiy asoslari. Tijorat bankini tashkil qilish va boshqarish tizimi. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi. Tijorat bankining funktsiyalariga qisqacha tavsif. Tijorat banklarining turlari. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish usullari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.1.12. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari (2 soat)**

Yuridik va jismoniy shaxslar pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha passiv operatsiyalar. Depozitlar va ularning turlari. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularning turlari. Banklarning vositachilik va boshqa operatsiyalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tijorat banklarining

passiv va aktiv operatsiyalarini boshqarish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11, Q13]

### **2.1.13. Tijorat banklari faoliyatini ta'minlash (2 soat)**

Bank tizimi faoliyatining barqarorligi. Banklarning to'lovga qobiliyati to'g'risida tushuncha va uni ta'minlash yo'llari. Bank likvidliligi va uni ta'minlash yo'llari. Banklar va nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari faoliyatining barqarorligini ta'minlash borasidagi islohotlar va ularning mohiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, "Bumerang", "Klaster", "Blits-so'rov", "Fikrlash xaritasi" "Ajurali arra", "Veer", Charxpalak, B.B.B jadvali, kichik guruhlarda ishlash metodlari.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.1.14. Markaziy bank va uning funktsiyalari (2 soat)**

Markaziy bankning vujudga kelishi va uning tuzilishi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsadi va vazifalari. Banklarning banki sifatida Markaziy bankning faoliyati va davlat bilan aloqasi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Ba'zi chet el Markaziy banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ajurali arra, bumerang, 3x3 usuli, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.1.15. Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari (2 soat)**

Nobank kredit tashkilotlari va ularni vujudga kelishi. Kredit kooperatsiyasi. kredit uyushmalari va ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Lombardlar va ularning vazifalari. Mikrokredit tashkilotlari va ularning kredit tizimidagi o'rni. Boshqa turdagi moliya-kredit muassasalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida nobank kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ma'ruza, namoyish etish, blits-so'rov, "baliq skeleti", guruhlarda ishlash metodi.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.1.16. Xalqaro valyuta munosabatlari va ularni tartibga solish masalalari (2 soat)**

Xalqaro iqtisodiy aloqalar - valyuta munosabatlarining asosi sifatida. Valyuta tizimi va uning elementlari. O'zbekiston Respublikasining valyuta munosabatlari va qonuniyatlari. Valyuta kursi va uning turlari ta'sir qiluvchi omillar. Valyuta tizimi va uning tulari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida valyuta munosabatlarini tartibga solish yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.1.17. Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari (4 soat)**

Xalqaro moliya institutlarining tashkil topishi va maqsadi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) ning tashkil topishi va rivojlanishi. XVF ning maxsus fondlari. XVFning xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solishdagi roli. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), uning tashkil topishi, maqsadi, vazifalari va tashkiliy tuzilishi. Xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyasi. Xalqaro moliya korporatsiyasi. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB), uning tuzilishi va asosiy vazifalari, maqsadi va tashkiliy tuzilishi. Evropa hamjamiyatining mintaqaviy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlari. Evropa investitsiya banki. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki. Xalqaro hisob-kitoblar banki va uning operatsiyalari. Islom Taraqqiyot banki. Osiyo taraqqiyot banki. *Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xalqaro moliya institutlarining o'rni.*

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, "Bumerang", "Klaster", "Blits-so'rov", "Fikrlash xaritasi" "Ajurali arra", "Veer", Charxpalak, B.B.B jadvali, kichik guruhlarda ishlash metodlari.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

## **2.2. AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMALAR**

### **2.2.1. Pulning zarurligi, mohiyati, funktsiyalari va roli (2soat)**

Tovar ishlab chiqarish va pulning zarurligi.. Pulning mohiyati va uning xususiyatlari. Pul tovar qiymatining umumiy ekvivalenti. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari. Pulning funktsiyalari va ularga tavsif: pul qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi sifatida, pul jamg'arma vositasi. Pul funktsiyalarining o'zaro bog'liqligi. Pulning turlari. Pulning iqtisodiyotdagi roli. Iqtisodiyotni rivojlantirishda pul barqarorligini ta'minlashning o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

[A1, A6, A7, A8, Q9, Q11]

### **2.2.2,2.2.3. Pul aylanishi va uning tarkibi (2soat)**

Pul aylanishi haqida tushuncha va uning tuzilishi. Pul aylanishining tarkibiy qismlari. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va uni tashkil qilish tamoyillari. Naqd pul aylanishi va uning xususiyatlari. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning asosiy shakllariga qisqacha tavsifnoma, ularning xususiyatlari va qo'llash imkoniyatlari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

[A1, A2, A6, A7, A8, Q9, Q11]

### **2.2.4. Pul muomalasini tashkil qilish va pul massasi (2soat)**

Pul yaratish mexanizmi. Pul muomalasi qonuni. Muomaladagi pul massasi va uni boshqarish. Pul agregatlari, ularga tavsifnoma va pulni tartibga solish amaliyoti. O'zbekistonda pul agregatlari va ularning xususiyatlari. Pul-kredit siyosati va uning asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pul muomalasini tartibga solish va barqarorlashtirishda Markaziy bankning roli.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

### **2.2.5. Pul tizimi tushunchasi, turlari va elementlari (2soat)**

Pul tizimi va uning asosiy elementlari. Pul tizimining turlari va ularning evolyutsiyasi. O'zbekiston Respublikasida pul tizimi rivojlanishining tarixi. O'zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi(1991-1993 yillardagi pul muomalasi. So'mning muomalaga kiritilishi, 1994 yildagi pul islohoti. O'zbekiston Respublikasi pul tizimining amaldagi holati va asosiy maqsadi. Pul tizimining barqarorligi. Turli mamlakatlarning pul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy valyutaning konvertabelligini ta'minlash yo'llari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

### **2.2.6. Pul nazariyalari (2soat)**

Pul nazariyalari to'g'risida umumiy tushuncha. Pul nazariyalarining kelib chiqishi, turlari va namoyondalari: pulning metallik nazariyasi, pulning nominallik nazariyasi va uning manbalari. pulning miqdoriy nazariyasi. Pulga keynsian, nokeynsian va boshqa qarashlar. Pul nazariyasining yangicha talqin qilinishi.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

### **2.2.7. Inflyatsiya va uning turlari. Pulning barqarorligini ta'minlash yo'llari (2soat)**

Inflyatsiya, uning mazmuni, kelib chiqish sabablari va shakllari.



Inflyatsiyaning sotsial-iqtisodiy oqibatlarini. Pul muomalasini barqarorlashtirish va inflyatsiyani bartaraf qilish yo'llari. Pul islohotlari va uni pul muomalasini barqarorlashtirishdagi o'rni. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Markaziy bank pul-kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.2.8. Kreditning zarurligi, mohiyati va funktsiyalari (2soat)**

Kredit tushunchasi va uni iqtisodiy kategoriya sifatida vujudga kelishi. Fondlar (kapital)ning aylanishining o'ziga xos xususiyatlari va kreditning zarurligi. Kreditning mohiyati va uning funktsiyalari. Kredit qonuniyatlari va chegaralari. Kreditning tamoyillari va ularning mohiyati. Kreditning bozor iqtisodiyotidagi roli. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kreditning roli va ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.2.9. Kredit turlari va shakllari (2soat)**

Kreditning asosiy shakllari va ularning tavsifi. Kreditning turlari va ularning kreditlash jarayonidagi o'rni. Ssuda kapitali, ssuda foizining mazmuni va uning funktsiyalari. Ssuda foiziga ta'sir qiluvchi omillar. Kreditning tamoyillari va ularning mohiyati. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kreditlar bo'yicha foizlar o'sishining asosiy sabablari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.2.10. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi (2soat)**

Banklarning kelib chiqish tarixi va uning mohiyati. Bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Banklarning funktsiyalari. Banklarning turlari va ular faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, uning pog'onalari, maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari. Xorijiy davlatlar bank tizimi va uni o'ziga xos xususiyatlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining bank tizimiga ta'siri.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.2.11. Tijorat banklari va ularning funktsiyalari (2soat)**

Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va xuquqiy asoslari. Tijorat

bankini tashkil qilish va boshqarish tizimi. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi. Tijorat bankining funktsiyalariga qisqacha tavsif. Tijorat banklarining turlari. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish usullari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A4, A6, A7, A8, Q9, Q11]

#### **2.2.12. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari (2soat)**

Yuridik va jismoniy shaxslar pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha passiv operatsiyalar. Depozitlar va ularning turlari. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularning turlari. Banklarning vositachilik va boshqa operatsiyalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalarini boshqarish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11, Q13]

#### **2.2.13. Tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta'minlash (2soat)**

Bank tizimi faoliyatining barqarorligi. Banklarning to'lovga qobiliyati to'g'risida tushuncha va uni ta'minlash yo'llari. Bank likvidliligi va uni ta'minlash yo'llari. Banklar va nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari faoliyatining barqarorligini ta'minlash borasidagi islohotlar va ularning mohiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

#### **2.2.14. Markaziy bank va uning funktsiyalari (2soat)**

Markaziy bankning vujudga kelishi va uning tuzilishi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsadi va vazifalari. Banklarning banki sifatida Markaziy bankning faoliyati va davlat bilan aloqasi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Ba'zi chet el Markaziy banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]



### **2.2.15. Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari (2soat)**

Nobank kredit tashkilotlari va ularni vujudga kelishi. Kredit kooperatsiyasi. kredit uyushmalari va ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Lombardlar va ularning vazifalari. Mikrokredit tashkilotlari va ularning kredit tizimidagi o'rni. Boshqa turdagi moliya-kredit muassasalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida nobank kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.2.16. Xalqaro valyuta munosabatlari va ularni tartibga solish masalalari (2soat)**

Xalqaro iqtisodiy aloqalar - valyuta munosabatlarining asosi sifatida. Valyuta tizimi va uning elementlari. O'zbekiston Respublikasining valyuta munosabatlari va qonuniyatlari. Valyuta kursi va uning turlari ta'sir qiluvchi omillar. Valyuta tizimi va uning tulari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida valyuta munosabatlarini tartibga solish yo'llari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### **2.2.17. Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari (2soat)**

Xalqaro moliya institutlarining tashkil topishi va maqsadi. Xalqaro valyuta fondi(XVF)ning tashkil topishi va rivojlanishi, XVF ning maxsus fondlari, XVFning xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solishdagi roli. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), uning tashkil topishi, maqsadi, vazifalari va tashkiliy tuzilishi. Xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyasi. Xalqaro moliya korporatsiyasi. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB), uning tuzilishi va asosiy vazifalari, maqsadi va tashkiliy tuzilishi. Evropa hamjamiyatining mintaqaviy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlari. Evropa investitsiya banki. Xalqaro hisob-kitoblar banki va uning operatsiyalari. Islom Taraqqiyot banki. Osiyo taraqqiyot banki. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xalqaro moliya institutlarining o'rni.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q9, Q10, Q11]

### 3. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, pul, kredit va banklarni o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

#### “Pul kredit va banklar” fani bo'yicha mustaqil ta'limining mazmuni

Fani bo'yicha mazmuni	Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari
1.Pulning zarurligi, mohiyati, funktsiyalari va roli	Pulning zarurligi. Pulning qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi funktsiyalari. Pul funktsiyalarining o'zaro bog'liqligi.	Keys stadi.tayyorlash	Mavzu jarayonida
2.3.Pul aylanishi va uning tuzilishi	Naqd pulsiz hisob-kitoblar, uni tashkil qilish tamoyillari, shakllari va rivojlantirish istiqbollari.	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida
4.Pul muomalasini tashkil qilish va pul massasi	Pul agregatlari, ularga tavsifnoma va pulni tartibga solish amaliyoti va unga ta'sir qiluvchi omillar.	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida
5.Pul tizimi va uning elementlari	Bimetall va monometall pul tizimining amal qilishi. Qog'oz va kredit pul, ularga tavsifnoma va ularning amaliyotda qo'llanilishi. O'zbekisonda pul tizimining rivojlanish bosqichlari.	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda

6.Pul nazariyalari	Pul nazariyalarining kelib chiqishi, turlari va nomoyondalari.	Keys stadi..tayyorlash	Mavzu jarayonida
7.Inflyatsiya	Inflyatsiya, uning mazmuni, kelib chiqish sabablari va shakllari.	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida
8.Kreditning zarurligi. mohiyati va funktsiyalari	O'zbekiston Respublikasida kredit munosabatlari uning ob'ekti va sub'ekti, qonuniyatlari.	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida
9.Kreditning shakllari va turlari	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining asoslari, maqsadi vazifalari va operatsiyalari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda
10.Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi	Banklarning kelib chiqishi, funktsiyalari. O'zbekistonda mustaqil bank tizimini shakllanishi.	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda
11. Tijorat banklari va ularning funktsiyalari	Tijorat banklarini tashkil qilish bosqichlari Banklarning tashkiliy tuzilishi va boshqaruv tizimi	Keys stadi..tayyorlash	Oraliq baholashda
12. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari	Tijorat banklarining aktiv, passiv, vositachilik va boshqa operatsiyalari hamda ularning turlari.	Keys stadi..tayyorlash	Mavzu jarayonida
13. Tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta'minlash	Bank likvidliligi, to'lovga layoqatliligi va uni ta'minlash yo'llari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida
14.Markaziy banklar va ularning funktsiyalari	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining asoslari, maqsadi vazifalari va operatsiyalari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida
15.Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari	Mikrokredit tashkilotlar, lombardlar, byudjetdan tashqari fondlar, lizing va faktoring kompaniyalari	Keys stadi..tayyorlash	Mavzu yakunida
16.Xalkaro valyuta	Valyuta tizimining turlari	Loyiha ishi	Mavzu

munosabatlari va ularni tartibga solish masalalari	va u larning elementlari. Xalqaro kredit va uning funktsiyalari	tayyorlash, taqdimot va slaydlar	yakunida
17.Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari	Xalqaro moliya institutlarining turlari va ularning O'zbekiston bilan aloqalari.	Keys stadi..tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida

#### 4. Kurs ishi o'quv grafigida ko'zda tutilmagan.

### 5. REYTING BAHOLASH TIZIMI

#### 5.1. Reyting nazorati jadvali\*

Reyting nazorati turlari	Semestr haftalari																			Ballar	Saratash ballari	
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20	Attestatsiya			
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39	
ON	0-17									0-18										0-35		
∑ (JN+ON)	0-70																					0-70
YaN																				0-30	0-30	0
Jami	0-70																			0-30	0-100	55

\*Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin (18-19 haftalar qishki ta'til davri hisoblanadi).

#### Mazkur fan bo'yicha navbatdagi semestrda reyting nazorati jadvali\*

Reyting nazorati turlari	Semestr haftalari																			Ballar	Saratash ballari	
	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	Attestatsiya			
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39	
ON	0-17									0-18										0-35		
∑ (JN+ON)	0-70																					0-70
YaN																				0-30	0-30	0
Jami	0-70																			0-30	0-100	55

\*Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin.

### 5.2. JN bo'yicha baholash mezonlari

JNda amaliy mashg'ulotlar bo'yicha jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda talabaning o'zlashtirishiga mos ravishdagi mezon asosida 0-2 (yoki har 3(uch) hafta bo'yicha 0-6), jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan. JN bo'yicha 0-2(0-6) ballik tizimdagi mezonlar semestr boshida talabalar e'tiboriga etkaziladi.

### 5.3. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-35 (har bir ONda 0-17 /0-18) ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-17 /0-18 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi va talabalar e'tiboriga etkaziladi.

### 5.4. JN va ON bo'yicha reyting ballarini umumlashtirish mezonlari

Mazkur fan bo'yicha  $\sum(JN+ON)$  0-70 gacha bo'lgan reyting ballarini quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		$\sum (JN+ON)$
	JN	ON	
Pul, kredit va banklar fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda Pul, kredit va banklar bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	30-35	30-35	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda Pul, kredit va banklar bilan bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	25-29	25-29	50-69
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda Pul, kredit va banklar bilan bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	20(19)-24	20-24	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha koniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda Pul, kredit va banklar bilan bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

### 5.5. YaNni baholash mezonlari

YaN og'zaki, "Yozma ish" yoki "Test sinovi" shaklida 30(0-30) ballgacha belgilangan mezonlar asosida, majmuali (Yozma ish + test sinovi) shaklida 30(6/24) ballik tizim asosida o'tkaziladi.

### 5.6. Talabalarning fanni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlari

Talabalarning fan bo'yicha bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish 0-100 ballik reyting tizimi asosida quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

Talabani fanni o'zlashtirishini nazorat qilish mezonlari	Ballar
Pul, kredit va banklar fani mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda Pul, kredit va banklar bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	86-100
Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda Pul, kredit va banklar bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	71-85
Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda Pul, kredit va banklar bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	55-70
Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda Pul, kredit va banklar bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-54

## 6. DASTURNING INFORMATSION-KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA'MINOTI

Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ta'limning zamonaviy, xususan, interfaol metodlari, pedagogik va informatsion- kommunikatsion (multimedia ta'lim, amaliy dastur paketlari, taqdimot, elektron-didaktik) texnologiyalari majmuali tarzda qo'llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan, kompyuter dasturlari yordamida bankda operatsiyalarni o'tkazish uchun talab etiladigan manbalar nazariy-amaliy jihatdan shakllantiriladi va olingan ma'lumotlar o'rganiladi.

### **6.1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008y.
2. Belotelova N.P., Belotelova J.S. Dengi, kredit, banki. Uchebnik / – M.: Dashkov i K, 2010. – 484c.
3. Jukov E.F. Dengi, kredit, banki. Uchebnik / – M.: Volters kluver, 2010. – 432c.
4. Ivanova V. V., Sokolova B. I. Dengi. Kredit. Banki. Uchebnik - 2-e izd., pererab. i dop. / – M.: Prospekt, 2010. – 848c.
5. Lavrushina O.I. Dengi. Kredit. Banki. Uchebnik /– M.: Knorus, 2012y.
6. Omonov O., Qoraliev T.M. “Pul, kredit va banklar”. Darslik. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2012.388 b.
7. Saidov D. va boshqalar. Pul va pul muomalasi. O‘quv qo‘llanma/T.: Extremum-press, 2011. - 110 b.

### **6.1. Qo‘shimcha adabiyotlar:**

8. Merkulova I.V., Lukyanova A.YU. Dengi Kredit Banki. Uchebnoe posobie / – M.: Knorus, 2010. – 352c.
9. Myagkova T.L. Dengi, kredit, banki. Uchebnik /– M.: Allel-2000, 2010. – 364c.
10. Oleynikova I.N. Dengi. Kredit. Banki. Uchebnik / – M.: Magistr, 2010. – 509c.
11. Qodirov E.T. “Xorijiy mamlakatlarda bank ishi”. T. “Noshir”.2012. 286 b.
12. Qoraliev T.M., Rayemova N.M. “Tijorat banklarining investitsiya portfeli va uni boshqarish”. Monografiya. Toshkent, “Extremum press” 2014 yil 102 b.
13. Internet saytlari:
  - [www.bankir.ru](http://www.bankir.ru)
  - [www.state.us](http://www.state.us)
  - [www.ser.uz](http://www.ser.uz).
  - [www.nbu.com](http://www.nbu.com)
  - [www.tfi.uz](http://www.tfi.uz)
  - [www.bir.uz](http://www.bir.uz)
  - [www.bma.uz](http://www.bma.uz)
  - [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

